



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/COGH2721

## **ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI**

### **Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna**

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b., Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*irodaishonanova@gmail.com*

*ORCID ID: 0000-0003-1761-8408*

### **Almanova Sumbula Usmanovna**

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Toshkent shahar, Yunusobod tumani 117-maktab rahbari*

*sumbula.almanova@gmail.com*

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'rta va oliy ta'lif tizimida Alisher Navoiy hayoti va ijodining o'rganilishi, Navoiy siyosining jamiyatimiz hayotidagi o'rni haqida ma'lumot berilgan. Ulug' mutafakkir ijodining o'qitilishi borasida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** "Navoiyxonlik", mushoira, bahru bayt, adabiyot, darslik, dastur, filologiya.

#### **Аннотация**

В данной статье представлена информация об изучении жизни и деятельности Алишера Навои в системе среднего и высшего образования, а также роли личности Навои в жизни нашего общества. Были высказаны мнения о педагогическом значении трудов великого мыслителя.

**Ключевые слова:** «Навоиведение», поэзия, бахру бейт, литература, учебник, программа, филология.

#### **Abstrakt**

This article presents information about the study of the life and work of Alisher Navoi in the system of secondary and higher education, as well as the role of Navoi's personality in the life of our society. Opinions were expressed about the pedagogical significance of the works of the great thinker.

**Key words:** "Navoi Studies", poetry, bakhru beyt, literature, textbook, program, philology.

Tarixda shunday shaxslar yashab o'tganki, ularning o'rni beqiyos. Shunday insonlardan biri Alisher Navoiydir. G'azal mulki sultonining nomi jamiyatimiz hayotida, asrlar o'tsa-da, o'z qimmatini yo'qotmay keladi. Har yili 9 fevral sanasi katta tantana bilan nishonlanadi, ko'plab joylarda turli tadbirlar, xotira kechalari, mushoiralar o'tkaziladi. O'zini o'qimishli, madaniyatli deb hisoblagan jamiyat a'zosi Alisher Navoiydan g'azal yoki ruboiy yoddan biladi, uning hayoti va ijodi haqida mulohaza yurita oladi. Salkam 6 asrga yaqin vaqt o'tsa ham, o'z qimmatini yo'qotmagan shoirimizning hikmatli so'zlarini tahlil qilib bera oladi. Yurtimizning turli joylarida hali-hamon "Navoiyxonlik", mushoira, bahru baytlar o'tkaziladiki, ularning ishtirokchilari esa adabiyot va she'riyatga aloqador bo'lmanган kasb egalari. Badiiy adabiyotga ozgina bo'lsa ham aloqador bo'lgan hofizlar mumtoz qo'shiqlarning mazmuniga e'tibor berib kuylashlari sababli g'azallar tahlili va talqinida ularning faolliklarini ko'rishimiz mumkin. Hayotimiz



davomida adabiyotga aloqador bo'limgan soha vakillari, masalan, aniq fanlar, tibbiyat yoki huquqshunoslik bo'yicha mutaxassislarning Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida o'z mustaqil fikrlarini bildira olishlariga guvoh bo'lganmiz. Ularning ba'zilari, hattoki, Navoiy asarlariga naziralar ham yozib ko'rganlar. O'quvchilik paytlarida Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan kechalarda faol ishtirok etishgan. Sahna ko'rinishlarida ijro etgan she'rlarini keyinchalik ham yoddan o'qib bera oladilar.

Xo'sh, bu xususiyat xalqimizning millatimizning necha foizida bor deb o'ylaysiz? Alisher Navoiy haqidagi o'rta maktabda olingen bilimlar qay darajada samarali? Qanday usullarni qo'llasak, o'zlashtirgan ma'lumotlarimizni yodimizda saqlab qolamiz? Nega aksariyat kishilar Alisher Navoiydan to'liq bitta g'azalni ham yod bilishmaydi? Yoki hamma ham "Xamsa" tarkibidagi dostonlarning joylashish tartibini to'g'ri aytib berolmaydi? Maktab dasturiga kiritilgan "Mehr va Suhayl" hikoyatini "Sab'ai sayyor" olingen parcha emas, balki dostonning asosiy syujet chizig'i deb hisoblaydi? Shu savollarga javob topish uchun biz xalq vakillari orasida so'rovnama o'tkazib, o'zimizga kerakli xulosalar chiqarishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Xalqimizning shunday madaniyatli, o'qimishli, ma'naviyatlari vakillari borki, hazrat Alisher Navoiyga bo'lgan cheksiz muhabbatli tufayli shoir ijodiga :mo murojaat qilib turishadi. Hattoki, ularning faoliyat yuritadigan sohalari adabiyotdan, she'riyatdan yiroq bo'lsa ham. Fizika-matematika fanlari doktori, professor Abdulla A'zamovni shu jumлага kiritish mumkin. Olimimiz aniq fanlar sohasida mutaxassis bo'lishlariga qaramay, adabiyotga, xususan Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan muhabbatlari tahsinga loyiq. Abdulla A'zamovning "Kitob? Kitob... Kitob!" maqolasida shunday fikr bor: "Navoiyni o'qish qiyin." Nega? Teleskopsiz ham yulduzli osmonidan zavq ola bilish mumkin-ku." Agar osmon adabiyotga, yulduzlar Navoiy asarlariga, teleskop lug'at va izohlarga mengzalayotgan bo'lsa, muallif Alisher Navoiy asarlarini qalban his etib tushunishni nazarda tutmoqda. Maqolaning davomida shunga yaqin xulosa ham keltirilgan: "Tarixda buyuk zotlar ko'p o'tgan. Hech ular bilan zamondosh bo'limganingizdan, ular bilan uchrashish, suhbatidan bahramand bo'lish imkoniyati yo'qligidan afsus qilganmisiz? Afsuslanishga hojat yo'q: ularning kitoblarini, ular haqidagi kitoblarni o'qing. Ular xuddi tirilib kelib, sizga suhbatdosh bo'lishmasa, men kafil."

Abdulla A'zamov nafaqat publisistik, balki ilmiy jihatdan ham adabiyotga va Alisher Navoiy hazratlariga mehr-muhabbatini ko'rsata olgan. Olimimizning "Aruz (Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur saboqlar )" hamda "Alisher Navoiy g'azallarida hazil-mutoyiba" nomli risololari bor. Ularda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodlari hamda aruz vazni yaxshi tadqiq qilingan. Vazn talabi bilan fe'l shakllarining o'zgarishi, inversiya(gap bo'laklari o'rnining almashishi)ning qo'llanishi, hijo(bo'g'in) turlarining almashishi qanchalik muhimligi aks etgan. Yuqoridagilardan tashqari, Abdulla A'zamov Alisher Navoiy haqida dramatik asarlar ham yozgan. Birinchi dramatik asar "Dugohi Husayniy" deb ataladi. Unda Alisher Navoiy va boshqa tarixiy



shaxslardan tashqari, Guli obrazi bor. Guli Alisherning tog'asi Mirsaid Kobuliyning qii sifatida tasvirlangan, ularning to'ylari bo'limgan, lekin nikohlari o'qilgan. Abulqosim Boburdan keyin taxtga o'tirgan Abu Said Mirzoning zulmi tufayli Mirsaid Kobuliy ham, Guli ham halok bo'lishadi. Navoiyning tog'alari Abu Said Mirzo tomonidan o'ldirilganligi tarixiy fakt hisoblanadi. Guli timsoli esa Uyg'un va Izzat Sulton dramasi ta'siri, nazarimizda.

Ikkinchi drama "O'zini-o'zi izlagan va topgan odam" deb ataladi. Dramada Alisher Navoiyning saroydagi faoliyati aks etgan. Ijodkor Husayn Boyqaro atrofidagi a'yonlarning Navoiyga bo'lgan xusumatlarini va fe'l-atvorlarini yoritib berishga harakat qilgan. Sahna asarida Navoiy haqidagi rivoyatda keltirilgan

Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokroq,  
Kiprigim shabnam to'kilgan sabzadin namnokroq

baytining tarixi ham keltiriladi. Rivoyatda Alisher Navoiy uni bir faqir kishidan sotib olgani hikoya qilingan. Mavlono Lutfiyning tahsiniga sazovor bo'lgan

Orazin yopqach, ko'zimdin to'kilur har lahza yosh,  
O'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'ach quyosh  
bayti ham keltirib o'tilgan.

Muhtaram olimimiz Abdulla A'zamov Alisher Navoiy ijodi muxlisi sifatida uning g'azaliga muxammas ham bog'laganlar:

Misli xonaqohingizni aylamak ziyoratim –  
Har kuni devoningizni qo'lga olmoq odatim.  
Bu g'azalni o'qiganda haddan oshmis hayratim:  
"Bo'lmish andoq munqati' ahli zamondin ulfatim  
Kim, o'zum birla chiqishmas ham zamone suhbatim".

Yoki Alisher Navoiyning mashhur ruboysiiga musannoni keltirishimiz mumkin:

"Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,  
Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi."  
Ummonda qoshing misli darakchi qushdek,  
Ko'zing – yo'l yoritguvchi mayog'ing yaxshi.  
O'xshatsa qomating gar daraxtu gulga,  
G'unchayu guling ne dey? Butog'ing yaxshi.  
Firog'ing shirin, ammo visolga yetmas:  
"Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi."  
Bu misrani kim aytgan – bilibmi, bilmay  
Chimrilgan qoshing, uygan qovog'ing yaxshi.  
Ta'rifing Navoiydin o'tkazib bo'lmas:  
"Bir-bir ne deyin, boshdin ayog'ing yaxshi."

Yana bir olimimiz – fizika-matematika fanlari doktori, professor Mansurxon Toirov ham adabiyotga bo'lgan alohida e'tibori bilan ajralib turadi. Ustozning "Majnun maktablari" maqolasi haqida so'z yuritmoqchimiz. Maqola 2013 yil "Vatanparvar" gazetasida chop etilgan. Unda o'zbek mumtoz adabiyotidagi Layli va Majnun haqidagi dostonlarning yaratilishi tarixi haqida so'z boradi. Ma'lumki,



“Layli va Majnun” dostonining ilk ijodkori Nizomiy deb hisoblanadi. Lekin muallif bunday dostonni birinchi bo‘lib Ro‘dakiy yozganini, ehtimol, bizgacha yetib kelmaganini aytib o‘tadi. Yana Fuzuliyning “Forsiyda Layli va Majnunlar serob, Lekin turkiyda bu rivoyat yo‘q” so‘zlarini keltirib, uning Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidan bexabarligining sababini topishga urinadi. Olimimiz “Layli va Majnun” qissasiga bag‘ishlangan asarlardan ikkitasi haqida so‘z yuritadi. Birinchisi – hazrat Inoyatxon bayoni bo‘lib, ikkinchisi 1976 yili Kiyevda chop etilgan B.Shidfar tahriri va so‘zboshisi asosidagi “Banu Amir qabilasilik Majnun haqida rivoyat”(Skazaniye o Madjnune iz plemenii Benu Amir) hisoblanadi. Hazrat Inoyatxon bergan rivoyatida Majnunning telbaligiga davo topolmagan ota-onalari Laylining ota-onasiga maktub yozib, ularning nikohiga rozilik berishlarini so‘raydilar. Yana shu rivoyatda Majnun Layliga salomini bir tuyakash xat tashuvchidan yetkazmoqchi bo‘ladi. Lekin sevgilisiga izhori shu qadar ko‘pligidan so‘zini tugatolmay, xat tashuvchi bilan Layli yashaydigan joygacha birga boradi. Maqola muallifi Layli va Majnunning shoirlar tomonidan o‘ylab topilgan siymolar emasligi, zamondoshlari tomonidan “Laylining Majnuni” taxallusini olgan shoir Qays ibn al-Mulavvah shimoliy arablarning Banu Amir qabilasi farzandi bo‘lganligini ma’lumot sifatida keltiradi. Tarixiy manbalarni asosan rus tilida ko‘rib chiqqan olimimiz shunday mulohaza bildiradi: “Men Navoiyning chig‘atoy tilida (eski o‘zbek tilida) yozilgan “Layli va Majnun” dostonini tushunishimda ko‘proq Lipkinding rus zaboniga aylantirilgan tarjimasiga suyandim, desam ko‘pam kulgiga qolmasman va navoiyshunos bo‘lmaganim uchun uzrim qabul qilinar. Mabodo tilimizning shakllanishi ustida betinim salkam yuz yildan buyon ishlayotgan tilshunos olimlarimiz bizning tilimizni sekin-asta Navoiy asarlarini to‘liq tushuna oladigan yo‘nalishda rivojlantira borishganda, balki tilimiz hoziridan-da go‘zalroq bo‘larmidi va bizlar Navoiy asarlarini hech bir duduqlanmasdan o‘qib rohatlanib yurarmidik.” Muhtaram olimimiz Alisher Navoiy o‘zining “Layli va Majnun” dostonini ustozи Abdurahmon Jomiydan avval yozib tugatganida ham alohida e’tibor qiladi.

O‘zbek adabiyotiga befarq bo‘lmagan yana bir yurtdoshimiz – huquqshunoslik fanlari doktori, ko‘plab badiiy asarlar muallifi Komiljon Sindarov. U kishi mumtoz adabiyotga ham murojaat qilganlar. Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Bizni bir parvonayu, o‘zni anga sham qildingiz,  
Ne balolig‘ bo‘lsakim, qoshimizda jam qildingiz.  
Qadrimizni yer bilib, ko‘zimizni nam qildingiz,  
Bizni, ey ishqu junun, rasvoi olam qildingiz,  
Har ne rasvolig‘din afzunroq bo‘lur ham qildingiz.

Yoki:

Qomati ko‘zni olar sarvi ravonim bor emish,  
Sochi sunbul, yuzi ol, qoshi kamonim bor emish,  
Tengi yo‘q sohibjamol, mohi tobonim bor emish,  
Seni ko‘rgach, der edim, bir mehribonim bor emish,  
Alloh-Alloh, ne balo botil gumonim bor emish.



Yuqoridagi ikkala muxammas ham bir xil – mumtoz adabiyotimizda eng ko'p uchraydigan vazn – ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Faqatgina "Qadrimizni yer bilib, ko'zimizni nam qildingiz" misrasida, Alisher Navoiy ta'rifi bilan aytganda, vaznida "aybg'inasi bor." Agar muxammaslarning boshqa bandlariga e'tibor bersak, mumtoz adabiyotdagi kabi tashbeh, talmeh, tazod, mubolag'a kabi she'riy san'atlarni uchratishimiz mumkin. Bu esa muallifning nafaqat adabiyot ixlosmandi, balki uning qoidalarini yaxshi o'zlashtirgan mutaxassis ekanligini anglaymiz.

Xalqimiz orasida yuqoridagi kabi ma'naviyatli insonlar ko'plab topiladi. Kelajakda ham shu kabi adabiyot ixlosmandlari, Alisher Navoiyning bir umrlik muxlislari xalqimizga ilhom berishi uchun nima qilishimiz kerak?

Bizningcha, yosh avlodga ulug' bobokalonimiz haqida ma'lumot berishni maktab davridan ham avvalroq boshlashimiz kerak. Bu esa, bolaning tili to'liq chiqib, so'zlarning ma'nosiga qiziqa boshlagan paytiga to'g'ri kelishi kerak. Agar bola nutq zaxirasining rivojlanishi haqida so'z ketsa, psixologlar shunday fikr bildirishgan: 2 yoshli bolaning nutq boyligi 250-400 so'zdan iborat bo'lsa, 3 yoshli bolaning so'z boyligi 1000-1200 so'zgacha bo'lar ekan. 7 yoshli bolaning nutq zaxirasi esa 4000 so'zga qadar borar ekan. Bu statistikadan xulosa qilish mumkinki, bog'cha yoshiga, ya'ni 3 yoshga yetgan bola olam bilan yaqindan tanishish uchun ochiladi. 3-7 yoshli bolalarda xotira juda yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shu sababli ko'plab olimlarimiz bolalarga bog'cha yoshidan Alisher Navoiy asarlaridan namunalar yodlatish kerakligi haqida fikr bildirgan edilar. Biz bu mulohazalarga qo'shilgan holda, shoirimizning so'zлari soddaroq tarzdagi ruboiylari va hikmatli so'zlarini bolalarga yod oldirish eng samarali fikrlardan ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Chunki bu xotirada saqlangan she'rlar keyinchalik ma'nosini chuqur tushunib olish uchun manba sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, bog'cha yoshidagi davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Ana shunday mas'uliyatli paytda yod olingan she'r va hikmatli so'zning ma'nosini kattalardan so'rab, tushunib olgan bola endi butun umr ularga amal qilishga harakat qiladi. Axir, "yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir" gaplari bejiz aytilmagan.

O'rta umumta'lim maktablarining deyarli barcha sinflarida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot beriladi, asarlaridan namunalar keltiriladi. Har bir sinf darsligiga o'sha sinf o'quvchilarining yoshlariga moslab, Alisher Navoiy asarlari va u haqida hikoya qiluvchi asarlar ham kiritilgan. Alisher Navoiy shaxsi haqida o'quvchilarda aniqroq tasavvur uyg'otish uchun manbalardan unumli foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Masalan, 11-sinf adabiyot darsligiga Xondamirning "Makorim ul-axloq" asaridan olingan parchalar kiritilgan. Ular, albatta, Alisher Navoiy shaxsiyati haqidagi tasavvurlarimizni kengaytiradi. Hammamizga ma'lum va mashhur bo'lgan "El desa Navoiyni" to'plamidan ham barcha yoshdagilar uchun ibrat bo'la oladigan hikoyatlarni ko'plab topishimiz mumkin va ulardan o'z o'rnida faol foydalansak, maqsadga muvofiq bo'lardi.

O'rta maktablarda "Adabiyot" va "O'qish" fanlaridan tashqari, "Tarbiya", "Ma'naviyat asoslari" kabi fanlar, qolaversa, har hafta o'tkaziladigan tarbiyaviy



soatlar bor. Ushbu darsliklarga ham Alisher Navoiy hayoti haqidagi ibratlari rivoyatlar kiritilsa, kelajak avlod ma'naviyatini o'stirishga hissa qo'shgan bo'lardik.

Bir e'tiborga loyiq holatni keltirib o'tamiz: o'rta maktab ta'limini olgan har bir vatandoshimiz Alisher Navoiyning "Sher va Durroj" hikoyatini, "G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish" ruboysiini va "Kelmadi" radifli g'azalidan juda bo'lmasa bir baytni yodda saqlab qolgan. Bularidan tashqari Uyg'un va Izzat Sultonning "Navoiy" dramasi ham xalqimiz vakillariga yaxshi tanish. Ushbu asar maktab darsliklariga kiritilmagan bo'lsa ham. Chunki ko'plab tadbirlarda bu dramadan parchalar sahnalashtirilgan va unda monolog hamda dialoglarni ijro etganlar bir umr yoddan chiqarishmaydi. "Navoiy" dramasi sababli xalqimizning juda ko'plab vakillari Alisher Navoiyning hayotida Guli bo'lganiga ishonishadi. Va bu holatga, albatta, "Alisher Navoiy" kinofilm ham sabab bo'lgan, chunki filmda Guli obrazi bor, "Navoiy" dramasidagi parchalardan unumli foydalanilgan. Shu o'rinda xulosa sifatida bir fikr aytish mumkin: multfilm yoki kinofilmga ko'chirilgan asarlar oddiy xalq ongiga yaxshiroq o'rashar ekan! Mashhur kinofilm qahramoni aytganidek: "Kitob ham, teatr ham yo'q bo'ladi, faqat televideniye qoladi!" Teatrlardagi spektakllar o'z yo'liga, televideniyening o'rni boshqacha ekan, nazarimizda. Agar Alisher Navoiy asarlari asosida badiiy jihatdan saviyali ssenariylar tuzilib, suratga olinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Shunda ko'plab tomoshabinlar Farhod komil inson bo'lishi uchun qanday to'siqlarni yengib o'tgani, Bahromshoh nimalarni boshidan kechirgani-yu, qanday hikoyatlarni eshitgani haqida ma'lumotga ega bo'lishardi. Darslik rejalariga kiritilmagan bo'lsa ham, "Lison ut-tayr" dostonidagi Shayx San'on hikoyatini ham ekranlashtirilsa, shu bilan birga, albatta, Alisher Navoiy haqidagi filmning ham yangilansa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

G'azal mulkining sultoni hayot va ijod yo'lining o'rganilishi oliy o'quv yurtlarida ham davom etadi. Oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "O'zbek tili" (rus guruhlari uchun), "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" kabi fan dasturlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga ma'lum soatlar ajratilgan. "O'zbek tili" fanida "O'zbek tili - davlat tili" mavzusida Alisher Navoiyning hikmatli so'zlaridan namunalar berilgan, mustaqil topshiriqlar ro'yxatiga "Alisher Navoiy - o'zbek adabiy tilining asoschisi" mavzusi kiritilgan. Bu vazifalar rusiyabon guruh talabalarining buyuk mutafakkirimizning hayoti va ijodi bilan yaqinroq tanishish imkonini beradi.

Nofilologik yo'naliishlarning 7-8-semestrlari uchun mo'ljallangan "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani o'quv dasturida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga ma'lum soatlar ajratilgan. Ushbu soatlarda Alisher Navoiyning hayoti, bunyodkorlik faoliyatiga keng o'rin berilgan. Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari haqida ma'lumot berilgan va "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan.

Ushbu fan dasturida Alisher Navoiy lirkasiga ham ahamiyat qaratiladi, "Xazoyin ul-maoniy" devoni tarkibi haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, xamsachilik an'analari va "Xamsa" dostonlariga ham to'xtab o'tilgan.



Alisher Navoiy hayoti va ijodining oliy ta'lif muassasalarida o'qitilishi bo'yicha asosiy fan "Navoiyshunoslik" hisoblanadi. Filologiya yo'naliishlariga mo'ljallangan bu fan dasturi 4 modul asosida o'qitiladi:

- 1- modul. Alisher Navoiy hayoti va ijodi
- 2- modul. Navoiy poetikasi
- 3- modul. Navoiy lirikasini sharhlab o'qitish
- 4- modul. Navoiy dostonlari va nasriy asarlarini sharhlab o'qitish

Oliy ta'lif tizimida Alisher Navoiy hayoti va ijodi nechog'lik chuqur tadqiq qilinsa, ta'lif sohasi bo'yicha yetishib chiqqan mutaxassislar shunchalik bilimdon va tajribali bo'lishadi. Ularning yosh avlodga bergan bilimlari yordamida Alisher Navoiy shaxsiyatining jamiyatdagi o'rni ham yuksalaveradi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Olim S.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2019. – 352 b.
2. Sh.Sirojiddinov va boshqalar. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: "Tamaddun", 2019.
3. To'xliyev va b. Ta'lif bosqichlarida Alisher Navoiy asarlarini o'rganish. – Toshkent: Bayoz, 2017. – 208 b.
4. To'xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 200 b.
5. Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 368 b.
6. Аъзам А. Тажрибалар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 272 б.
7. Ҳасанова А., Зуннунов А. Мактабда Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш. Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 88 б.



<b>DÜŞÜNCELER</b>	
<b>Rahmonova Shahlo Rashidovna.</b> O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
<b>Abdullayeva N.M.</b> TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
<b>Zaki Arslanovich Alibaev.</b> СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
<b>Akжолова Таңнұра Нұрбековна.</b> КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
<b>Begmatova Dildora Abdunematovna.</b> MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
<b>Erkinova Madinaxon Umid qizi.</b> XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
<b>Mansurova Yulduz Faxriddinovna.</b> MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
<b>Nizomjonova Durdonna Nizomjonovna.</b> TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
<b>Qurbanboyeva Mohidil Isroil qizi.</b> "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
<b>Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi.</b> O'ZBEKİSTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
<b>Avezova Maktuba To'rayevna.</b> YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
<b>Мұхаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойышыбай Арайлым.</b> TÜRK HALK HİKAYELERİİNDE ANLATI YAPISI	198
<b>Ishonhanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna.</b> ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
<b>II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI</b>	
<b>Ravshanxo'ja Rasulov.</b> TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
<b>Mirzaqulov Tursunali O'tayevich.</b> TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
<b>E.M. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б.</b> АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
<b>Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi.</b> TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
<b>Esayeva Dilafruz Azamatovna.</b> ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
<b>Sharipova Xumora Zayniddinovna.</b> OLMOSHLARNING KONTEKSTDА QO'LLANISHI	236
<b>Umarova Diafruz Razzakberdiyevna.</b> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

